UO‘K 94(575.1):902/904:39

HUNARMANDCHILIK RISOLALARIDA AXLOQ-ODOB MASALALARI

O.O. Po‘latov

Maqolada hunarmandchilik risolalarida aks etgan axloqiy qarashlar o‘rganilgan. Hunarmandlar orasida shakllangan ustoz-shogird an’analari, shogirdning ustozga hurmat-ehtiromi, ustozning shogird tarbiyasidagi mas’uliyati tahlil qilingan. Shuningdek, hunarmandlarning kasbiy faoliyati bilan bog‘liq axloqiy hamda diniy qarashlar tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *risola, hunarmand, ustoz, shogird, odob-axloq, pir*.

В статье анализируются этические нормы, изложенные в ремесленных трактатах (рисала). Рассматриваются правила взаимоотношений в системе «мастер – ученик», формы проявления уважения ученика к наставнику и принципы нравственного отношения мастера к своему ученику. Особое внимание уделяется моральным и религиозным представлениям ремесленников, определявшим их профессиональную деятельность, поведение и традиции ремесленного сообщества.

Ключевые слова: *рисала, ремесленный трактат, ремесленник, мастер, ученик, профессиональная этика, мораль, пир, покровитель.*

KIRISH

Hunarmandchilik risolalari Turkiston hududida shakllangan an’anaviy hunarmandchilik tizimining muhim yozma manbalari hisoblanadi. Ular muayyan kasb egalarining faoliyatini tartibga soluvchi qo‘llanma bo‘lish bilan birga, hunarmandlarning axloqiy, diniy va ijtimoiy qarashlarini ham o‘zida mujassam etadi. Risolalar mazmuni hunarmandchilikning nafaqat ishlab chiqarish faoliyati, balki yuksak ma’naviy va ijtimoiy qadriyatlarga asoslangan tizim sifatida shakllanganini ko‘rsatadi. Shu bois risolalar hunarmandlar tomonidan muqaddas manba sifatida e’zozlangan, ularga hurmatsizlik bilan munosabatda bo‘lish qat’iy qoralangan. Har bir kasbning o‘z risolasi bo‘lib, mazkur kasb bilan shug‘ullanuvchi hunarmandlar uchun unda belgilangan qoidalarga rioya etish majburiy hisoblangan. Risola talablariga amal qilmagan ustalar esa ustozlik maqomiga munosib emas deb baholangan.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi hunarmandchilik risolalarida aks etgan axloq-odob masalalarini bayon etish, ustoz va shogird o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va ustoz-shogirdlik munosabatlarining ma’naviy asoslarini ochib berish, shuningdek, mazkur qadriyatlarning asrlar davomida avloddan avlodga uzluksiz o‘tishi va saqlanib qolishida hunarmandchilik risolalarining o‘rni hamda ahamiyatini ochib berishdan iborat.

MATERIAL VA USULLAR

Hunarmandchilik risolalaridagi axloqiy va diniy qarashlarni, shuningdek, an’anaviy kasb madaniyatini tadqiq etishda bevosita mazkur manbalarning matniy xususiyatlari va tarixiy kontekstini yorituvchi ilmiy adabiyotlar tahlili muhim o‘rin tutadi.

Hunarmandchilik risolalarini sotsiomadaniy jihatdan tasniflash va ularning tarixiy manba sifatidagi ilmiy qiymatini belgilashda O.Suxarevaning fundamental tadqiqoti [1] muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Muallif o‘z ishida risolalarni o‘rta asrlar Yaqin va O‘rta Sharq ijtimoiy hayotini o‘rganishda birlamchi va ishonchli tarixiy manba sifatida ilmiy muomalaga kiritgan bo‘lib, ulardagi ichki me’yorlar va qoidalar tizimini tahlil qilgan [1]. Mazkur maqolada ko‘tarilgan muammoning amaliy asosi sifatida O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan noyob toshbosma manbalar, xususan, №749 [2] va №756 [3] inventar raqamli risolalar matniy asos bo‘lib xizmat qildi. Ushbu manbalar an’anaviy kasb egalarining kundalik faoliyatini tartibga soluvchi axloqiy me’-

yorlar va “halollik” hamda “poklik” tushunchalarining diniy-axloqiy jihatlarini bevosita tadqiq etish imkonini beradi [2, 3].

Risolalarda bayon etilgan ma’naviy prinsiplarning, xususan, “kasb egallash majburiyati” g‘oyasining mafkuraviy ildizlarini anglashda tasavvufiy ta’limotlar, ayniqsa, naqshbandiya tariqati qoidalari alohida o‘rin tutadi. G.Navro‘zova o‘z asarida naqshbandiyaning komil insonni tarbiyalashga qaratilgan “Dast ba kor, dil ba Yor” tamoyilini tadqiq etib, mehnat va hunarni inson ma’naviy kamolotining ajralmas tarkibiy qismi sifatida ilmiy asoslaydi [4]. Shuningdek, matbuot sahifalarida e’lon qilingan ilk manbalar, xususan, 1887-yildagi “Turkiston viloyatining gazeti”da chop etilgan “Kulolchilik risolasi” [5] hunarmandlarning amaliy ish jarayonidagi ichki ozodalik, kasb odobi va diniy-marosimiy qoidalarning tarixiy variantlarini qiyoslashda yordam berdi.

Hunarmandchilik muhitidagi pirlar instituti, ustaxonaning muqaddasligi va soha homiylari ruhiga bo‘lgan munosabat masalalari S.Davlatovaning monografiyasida [6] janubiy hududlar misolida va tarixiy jarayonlar kontekstida atroflicha yoritilgan. O‘rta asrlar Turkiston shaharlaridagi, xususan, Samarqand va Buxorodagi hunarmandchilik tashkilotlarining ijtimoiy-iqtisodiy holati, ularning tabaqalanishi va jamoaviy muhitining o‘ziga xos jihatlari R.Mukminovaning ocherklarida ijtimoiy-tarixiy nuqtayi nazaridan umumlashtirilgan [7].

Muammoni o‘rganish jarayonida qiyoslash, tarixiy-tipologik tahlil, tarixiy rekonstruksion tahlil metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Risolalarning asosiy xususiyati shundaki, ular kasbga oid bilimlarni faqat amaliy jihatdan emas, balki ma’naviy-axloqiy mezonlar bilan uyg‘un holda bayon etadi [1. B. 201]. Har bir hunar turi uchun alohida risolalar yaratilgan bo‘lib, ularda hunarning kelib chiqishi, pirlar silsilasi, ustoz-shogird munosabatlari, kasbga oid odob-axloq qoidalari va diniy qarashlar batafsil yoritilgan. Xususan, temirchilik risolasida ushbu hunarning kelib chiqishi Dovud alayhissalom bilan bog‘lanadi va Dovud, Solih, Lut, Idris payg‘ambarlar temirchilik pirlari sifatida ta’kidlanadi [2. B. 21]. Bu esa risolalarni hunarmandchilikning ichki tuzilmasini ochib beruvchi muhim manba sifatida ko‘rsatadi.

Hunarmandchilik risolalari tasavvuf va futuvvat an’analari bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangan. Futuvvat g‘oyalari hunarmandlar o‘rtasida birodarlik, halollik va saxovat tamoyillarini targ‘ib qilgan bo‘lsa, tasavvuf ta’limoti mehnatni insonning ma’naviy kamolotga erishishidagi vosita sifatida talqin etgan. Xususan, naqshbandiya tariqatida bir hunarga ega bo‘lmagan shaxs bu tariqatga qabul qilinmagan [3. B. 170]. Risolalarda kasb faoliyati diniy qadriyatlar bilan uyg‘un holda ifodalanadi.

Risolalarda hunarmandning jamiyatdagi o‘rni ham alohida ta’kidlanadi. Hunarmand o‘z faoliyati orqali nafaqat iqtisodiy ehtiyojlarni qondiruvchi shaxs, balki jamiyatning ma’naviy hayotida ham faol ishtirok etuvchi inson sifatida qaraladi. Xususan, hunarmandlar har kunlik daromadidan ehson qilishi, yetim-yesirlarga mehribonlik qilishi kerakligi ta’kidlangan [2. B. 79]. Shu bois risolalarda hunarmanddan yuqori axloqiy fazilatlar talab etiladi. Halollik, poklik, rostgo‘ylik, sabr va qanoat kabi sifatlar kasb madaniyatining ajralmas qismi sifatida ko‘rsatiladi.

Mazkur risolalar hunarmandchilikni tartibga soluvchi ichki me’yorlar tizimini ham shakllantirgan. Ular orqali hunarmandlarning o‘zaro munosabatlari, ustoz-shogird tizimi, ishlab chiqarish jarayonidagi tartib-qoidalar va kasbga oid marosimlar aniq belgilab qo‘yilgan. Shu jihatdan risolalarni an’anaviy jamiyatda hunarmandchilik faoliyatini boshqaruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida baholash mumkin.

Hunarmandchilik risolalarida kasb madaniyati tushunchasi keng va ko‘p qatlamli mazmunga ega bo‘lib, u hunarmandning nafaqat kasbiy mahoratini, balki uning axloqiy qiyofasi, mehnatga munosabati va jamiyatdagi o‘rnini ham belgilab beradi. Kasb madaniyati aniq me’yorlar asosida tartibga solinib, har bir hunarmand ushbu qoidalarga amal qilishi shartligi ta’kidlanadi.

Avvalo, hunarmand uchun halollik eng asosiy tamoyil sifatida ilgari suriladi [2. B. 156]. Halol mehnat qilish, mahsulotni insofsiz yo‘l bilan sotmaslik, mijozni aldab foyda ko‘rmaslik kabi qoidalar deyarli barcha risolalarda uchraydi. Bu esa hunarmandchilik faoliyatida iqtisodiy manfaatdan ko‘ra axloqiy mezonlar ustuvor bo‘lganini ko‘rsatadi. Hunarmand o‘z rizqini faqat halol mehnat orqali topishi lozimligi alohida urg‘ulanadi.

Shuningdek, poklik va ozodalik masalasi ham kasb madaniyatining muhim qismi sifatida talqin etiladi [5. B. 4]. Hunarmand ish boshlashdan oldin pokiza bo‘lishi, ustaxona va asbob-uskunalarni toza tutishi zarurligi qayd etiladi. Bu nafaqat gigiyenik talab, balki ma’naviy poklik ramzi sifatida ham talqin etiladi. Ayniqsa, diniy qarashlar bilan bog‘liq holda tahoratli yurish, ishni pok niyat bilan boshlash kabi talablar hunarmandning ichki madaniyatini shakllantirgan.

Risolalarda hunarmandning mehnatga bo‘lgan munosabati ham alohida yoritiladi. Hunarmand ishni sidqidildan bajarishi, unga beparvo bo‘lmasligi, har bir buyumni puxta va sifatli tayyorlashi lozimligi ta’kidlanadi. Ishga mas’uliyatsizlik bilan yondashish, sifatsiz mahsulot tayyorlash qat’iyan qoralangan. Bu esa hunarmandchilikda sifat nazoratining an’anaviy shakli mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

Kasb madaniyatining yana bir muhim jihati – hunarmandning mijozlar bilan munosabatidir. Risolalarda hunarmand mijozlarga nisbatan xushmuomala, sabrli va adolatli bo‘lishi kerakligi ta’kidlanadi [2. B. 33]. Bu esa hunarmandchilik faoliyatida insoniy munosabatlar muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi.

Risolalarda hunarmandlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar ham tartibga solingan. Ular bir-biriga yordam berishi, raqobatda insofdan chiqmasligi, boshqalarning mehnatini hurmat qilishi lozimligi qayd etiladi. Bu esa hunarmandchilik jamoalarida sog‘lom ijtimoiy muhit shakllanganidan dalolat beradi. Bunday muhit kasb rivoji uchun muhim omil bo‘lgan.

Risolalarda Qur’on oyatlari va hadislarning mazmuniga asoslangan fikrlar ham keng uchraydi. Hunarmandlarni halollikka, adolatga, sabr-toqatga va saxovatga undovchi g‘oyalar aynan diniy manbalar bilan bog‘lab tushuntiriladi. Bu esa kasb madaniyatining diniy asosga ega ekanligini yanada mustahkamlaydi. Hunarmand o‘z faoliyatida mazkur qadriyatlarga amal qilish orqali nafaqat jamiyat, balki diniy-axloqiy me’yorlar oldidagi mas’uliyatini ham chuqur anglagan.

Risolalarda ish jarayoni bilan bog‘liq diniy amaliyotlar ham muhim o‘rin tutadi. Ish boshlashdan avval duo qilish, ish davomida zikr aytish, ish yakunida shukronalik bildirish kabi odatlar hunarmandchilik muhitida keng tarqalgan. Ayniqsa, olov bilan ishlovchi hunarmandlar faoliyatida bu kabi diniy amaliyotlar alohida ahamiyat kasb etgan. Bu orqali hunarmand o‘z faoliyatini ilohiy nazorat va homiylik ostida amalga oshirayotganini his etgan.

Pirlar instituti ham hunarmandchilikdagi diniy qadriyatlarning muhim ko‘rinishlaridan biridir. Har bir hunar turi muayyan pir bilan bog‘lanib, hunarmandlar ushbu pirni o‘zining ma’naviy homiysi sifatida qabul qilgan. Hunarmandlar o‘z ustaxonalarida hunar pirlarining ruhlari yashashiga ishonishgan [6. B. 294]. Shu boisdan ham risolalarda ustaxonani pokiza tutish, u yerda yomon so‘zlar so‘zlamaslik, ish vaqtida bekor o‘tirmaslik talab etilgan. Pirlar nomini zikr etish, ularning ruhiga hurmat ko‘rsatish va madad so‘rash kabi amaliyotlar hunarmandchilik faoliyatining muhim qismi bo‘lgan. Bu esa kasbning faqat dunyoviy emas, balki ma’naviy-axloqiy tamoyillarga tayangan holda shakllanganini namoyon etadi.

Shuningdek, risolalarda harom va halol haqidagi tushunchalar alohida ahamiyat kasb etadi. Hunarmand faqat halol yo‘l bilan daromad topishi, haromdan tiyilishi, shubhali ishlardan uzoq bo‘lishi kerakligi qat’iy belgilangan. Bu talablar hunarmandning ichki axloqiy nazoratini shakllantirgan va uning faoliyatini ma’naviy jihatdan tartibga solgan.

Demak, hunarmandchilik risolalarida diniy qadriyatlar kasb madaniyatining asosiy ustunlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ular orqali hunarmandchilik faoliyati ma’naviy mazmun kasb etib, hunarmandning shaxsiy va kasbiy kamolotiga xizmat qilgan. Bu esa risolalarning nafaqat kasbiy, balki diniy-ma’naviy manba sifatidagi ahamiyatini ham belgilaydi. Hunarmandchilik risolalarida kasb madaniyati va diniy qadriyatlar alohida-alohida emas, balki o‘zaro uzviy bog‘langan yagona tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Bu ikki qatlamning uyg‘unligi natijasida hunarmandchilik faoliyati nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ma’naviy mazmunga ega murakkab institutga aylangan. Risolalarda belgilangan qoidalar aynan shu uyg‘unlik asosida shakllangan bo‘lib, hunarmandning kundalik faoliyati ham ushbu tamoyillar asosida tartibga solingan.

Kasb madaniyati doirasida belgilangan halollik, poklik, adolat, sabr va qanoat kabi fazilatlar diniy qadriyatlar bilan mustahkamlangan. Ya’ni, bu fazilatlar nafaqat kasbiy talab, balki diniy majburiyat sifatida talqin etilgan. Natijada hunarmand ushbu me’yorlarga amal qilish orqali o‘z kasbini mukammal bajarish bilan birga, diniy burchini ham ado etgan hisoblangan. Bu holat kasb faoliyatining ma’naviy mas’uliyat bilan uyg‘unlashganini ko‘rsatadi. Risolalarda ushbu uyg‘unlik hunarmandchilik tizimining ijtimoiy funksiyalarida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Avvalo, bu tizim orqali jamiyatda axloqiy tartib va ijtimoiy barqarorlik ta’minlangan. Hunarmandlar risolalarda belgilangan qoidalarga amal qilish orqali o‘zaro ishonchga asoslangan munosabatlarni shakllantirganlar. Bu esa savdo-sotiq jarayonlarida adolat va halollikni ta’minlashga xizmat qilgan.

Umuman olganda, hunarmandchilik risolalarida kasb madaniyati va diniy qadriyatlarning uyg‘unligi an’anaviy jamiyatda hunarmandchilikni tartibga soluvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Bu uyg‘unlik hunarmandchilik faoliyatiga chuqur ma’naviy mazmun berib, uni ijtimoiy va axloqiy jihatdan mukammal tizimga aylantirgan. O‘rta asrlar Turkiston hunarmandchilik tashkilotlarining holati haqida ma’lumot beruvchi manbalarning kamligini inobatga olsak [7. B. 27], hunarmandchilik risolalari hunarmandlar orasidagi kasb madaniyatini yoritishda muhim manba hisoblanadi.

Hunarmandchilik risolalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular an’anaviy jamiyatda kasb madaniyati

va diniy qadriyatlarning o‘zaro uyg‘unlashgan holda shakllanganini aks ettiruvchi muhim manbalardir. Ushbu risolalar orqali hunarmandchilik faqat ishlab chiqarish faoliyati sifatida emas, balki ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy tamoyillarga asoslangan tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Risolalarda aks etgan kasb madaniyati hunarmandning faoliyatini har tomonlama tartibga soluvchi me’yorlar majmuasini tashkil etadi. Halollik, poklik, adolat, sabr va qanoat kabi fazilatlar hunarmand uchun asosiy talab sifatida belgilangan bo‘lib, ular orqali kasbning obro‘si va sifat darajasi ta’minlangan. Bu me’yorlar diniy qadriyatlar bilan mustahkamlanganligi sababli hunarmandlar uchun majburiy ahamiyat kasb etgan.

Diniy qadriyatlar esa hunarmandchilik faoliyatiga chuqur ma’naviy mazmun bag‘ishlagan. Mehnat ibodat darajasiga ko‘tarilib, halol rizq topish asosiy maqsad sifatida talqin etilgan. Pirlar instituti, marosimlar va duolar orqali hunarmandchilik faoliyati diniy e’tiqod bilan uzviy bog‘langan. Bu esa hunarmandlarning o‘z kasbiga nisbatan mas’uliyatli va ongli munosabatini shakllantirgan.

Kasb madaniyati va diniy qadriyatlarning uyg‘unligi natijasida hunarmandchilik tizimi jamiyatda muhim ijtimoiy funksiyalarni bajargan. U orqali ijtimoiy tartib, axloqiy me’yorlar va jamoaviylik tamoyillari mustahkamlangan. Ustoz–shogird tizimi orqali esa bu qadriyatlar avloddan avlodga uzatilgan va hunarmandchilikning uzluksiz rivoji ta’minlangan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, hunarmandchilik risolalari kasb madaniyati va diniy qadriyatlarning o‘zaro uyg‘unlashgan holda shakllangan murakkab tizimini aks ettiradi. Ularni o‘rganish orqali an’anaviy jamiyatning ichki tuzilmasi, ma’naviy qadriyatlari va hunarmandchilikning ijtimoiy ahamiyatini chuqur anglash mumkin. Shu sababli risolalar kelgusida ham kompleks yondashuv asosida tadqiq etilishi zarur bo‘lgan muhim ilmiy manbalar sirasiga kiradi.

Risolalarda kasb madaniyati va diniy qadriyatlarning o‘zaro uyg‘unligi hunarmandchilik tizimining barqarorligini ta’minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Halollik, adolat, poklik va mas’uliyat kabi kasbiy fazilatlar diniy e’tiqod bilan mustahkamlanib, hunarmand faoliyatini ichki nazorat mexanizmi asosida boshqarishga xizmat qilgan. Natijada hunarmand nafaqat tashqi ijtimoiy nazorat, balki o‘z e’tiqodi orqali ham tartibga solingan, bu esa tizimning samaradorligini oshirgan.

Risolalarda aks etgan ustoz-shogird tizimi, pirlar instituti va marosimlar majmuasi hunarmandchilikni oddiy kasb darajasidan yuqori bosqichga – ijtimoiylashuv va ma’naviy tarbiya mexanizmiga aylantirgan. Aynan shu elementlar orqali kasbiy bilimlar bilan bir qatorda axloqiy qadriyatlar uzatilgan va hunarmandchilik tizimining uzluksizligi ta’minlangan.

Adabiyotlar:

1. *Сухарева О*. Рисала как исторический источник. / В кн.: Источниковедение и текстология средневекового Ближнего и Среднего Востока. – Москва: Наука, 1984. – С. 201–215.

2. Академия наук Республики Узбекистан, Институт востоковедения. Литография, инв. № 749.

3. Академия наук Республики Узбекистан, Институт востоковедения.. Литография, инв. № 756.

4. *Наврўзова Г*. Нақшбандия – камолот йўли. – Тошкент: Фан, 2007. – 192 б.

5. Кулолчилик рисоласи // Туркистон вилоятининг газети, 1887. – № 4. – Б. 4.

6. *Давлатова С.* Ўзбек анъанавий ҳунармандчилиги тарихий жараёнлар контекстида (Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудлари мисолида). – Тошкент: “YANGI NASHR” нашриёти, 2018. – 368 б.

7. *Мукминова Р.Г.* Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре в XVI веке. Ташкент: Фан, 1976. – 250 с.

8. *Ҳамидова М*. Қашқадарё воҳаси ҳунармандчилиги тарихи (XIX аср охири – XX аср бошлари). – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – 162 б.

9. *Olufsen O.* The Amir of Bukhara and his country. – London: William Heinemann, 1911. – 620 p.

10. *Қиличев Р.* Бухоро шаҳрида ҳунармандчилик (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари). – Тошкент: Фан, 1996. – 49 б.

11. *Зияева Д*. Ўзбекистон шаҳарлари XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида. – Тошкент: “YANGI NASHR” нашриёти, 2017. – 440 б.

ETHICAL VIEWS IN CRAFT RISALAS

Otabek O. Pulatov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Ijtimoiy fanlar – Scientific Bulletin. Series: Social Research. 2026. 3(95). 63-68.
[1]University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, Tashkent, 100017, str. Shakhrisabz, 25 (Uzbekistan). E-mail: info@jmcu.uz

Key words: risala, craftsman, master, apprentice, ethics, pir, traditional society.

Craft risalas are essential written sources of the traditional craftsmanship system that evolved in the territory of Turkestan. Beyond serving as practical manuals regulating the activities of specific professions, these documents embody the ethical, religious, and social worldviews of artisans.

This study analyzes traditional craft treatises using historical, textual, and socio-cultural approaches. The research relies on lithograph copies from the Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan (e.g., Inventory No. 749 and 756) alongside historical-ethnographic literature. The analysis examines how craft culture integrated with Islamic values, Sufi traditions-particularly the Naqshbandiya order-and the principles of Futuvvat (corporate brotherhood).

The study demonstrates that craftsmanship in traditional society operated not merely as an economic activity, but as a profound spiritual and social institution. Within the risalas, the "master-apprentice" (ustoz-shogird) relationship is governed by a strict moral code requiring deep mutual respect and ethical conduct. Masters who violated these regulations were deemed unworthy of teaching. Key moral principles such as honesty (halollik), spiritual and physical purity (poklik), justice, patience, and contentment are positioned as mandatory religious duties rather than mere professional recommendations. Artisans were explicitly required to perform rituals like ablution before work, recite daily prayers, and donate part of their earnings to orphans and the needy. Furthermore, the analysis highlights the "institution of pirs" (spiritual patrons), showing that artisans firmly believed the spirits of past masters resided in their workshops. This belief institutionalized strict internal discipline, forbidding foul language or idleness, especially among craftsmen working with fire.

The integration of professional culture with religious-spiritual values served as the foundational pillar for the stability of the traditional craft system. The risalas acted as an internal mechanism of moral control, ensuring social stability and the seamless generational transmission of ethical values. Given the scarcity of historical sources detailing medieval Central Asian craft organizations, these treatises remain indispensable comprehensive sources for understanding the internal normative structure and social history of traditional society.

References:

1. Sukhareva, O. (1984). *Risala kak istoricheskij istochnik* [Risala as a historical source]. In: Istochnikovedenie i tekstologiya srednevekovogo Blizhnego i Srednego Vostoka [Source study and textology of the medieval Near and Middle East]. Moscow: Nauka. Pp. 201-215.

2. Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Institute of Oriental Studies. Lithograph copy, inventory No. 749.

3. Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Institute of Oriental Studies. Lithograph copy, inventory No. 756.

4. Navruzova, G. (2007). *Naqshbandiya – kamolot yo'li* [Naqshbandiya – the path of perfection]. Tashkent: Fan.

5. (1887). Kulolchilik risolasi [The treatise of pottery]. *Turkiston viloyatining gazeti*, Issue 4. P. 4.

6. Davlatova, S. (2018). *O'zbek an'anaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida (O'zbekistonning janubiy hududlari misolida)* [Uzbek traditional crafts in the context of historical processes (on the example of southern regions of Uzbekistan)]. Tashkent: Yangi nashr.

7. Mukminova, R. (1976). *Ocherki po istorii Ocherki po istorii remesla v Samarkande i Buhare v XVI veke* [Essays on the history of crafts in Samarkand and Bukhara in the 16th century]. Tashkent: Fan.

8. Hamidova, M. (2009). *Qashqadaryo vohasi hunarmandchiligi tarixi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)* [History of crafts in the Kashkadarya oasis (late 19th - early 20th centuries)]. Tashkent: Publishing House of the National Library of Uzbekistan.

9. Olufsen, O. (1911). *The Amir of Bukhara and his country*. London: William Heinemann.

10. Qilichev, R. (1996). *Buxoro shahrida hunarmandchilik* [Craft production in Bukhara]. Tashkent: Fan.

11. Ziyayeva, D. (2017). *O‘zbekiston shaharlari XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida* [Cities of Uzbekistan in the late 19th – early 20th centuries]. Tashkent: Yangi nashr.

Muallif haqida ma’lumot:

PO‘LATOV Otabek Orifjon o‘g‘li – Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyatshunsolik va nomoddiy madaniy meros ilmiy tadqiqot instituti UNESCO bilan ishlash bo‘limi kichik ilmiy xodimi. E-mail*:* pulatovotabek43@gmail.com